

YOSHLAR O'RTASIDAGI NOADABIY QATLAMGA DOIR SO'ZLAR"

Toshtemirova Dilnoza Erkin qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar va gumanitar fanlar
fakulteti talabasi*

Anorqulova Ozoda

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Til – bu bizni, o'zimizni, o'zligimizni, o'zbekligimizni anglatadi. Til borki, millat bor. Shu sababli har bir millat va elat o'z tilining saqlanishi uchun kelajak avlodlarga bilimlarini va ko'nikmalarini berib boradi. Til turli xil xalq va millatlarni birlashtiradi. Shu o'rinda buyuk mutafakkir A.Avloniy: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsadurg'on o'ynayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning tilini yo'qotmakdur",- deganlar. Bundan ma'lum bo'ladiki, Avloniy ona tili haqida qayg'urib, milliy tilini saqlashga harakat qilgan va ular buning uddasidan chiqadi. Demak, otameros hisoblangan tilni asrab-avaylash esa yosh avlodlarga bog'liq. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek, hozirgi kun yoshlari o'zlari aytayotgan so'zning tag ma'nosini bilmasa-da, ko'plab chet tilidan kirib kelgan so'zlardan foydalanmoqdalar. Shuni oldini olgan holda o'zbek tili rivoji yo'lidagi islohotlar kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda barcha davlat idoralarida ish qog'ozlari davlat tilida olib boriladi. Shundan kelib chiqib mamlakat hududida yashayotgan har bir fuqaro adabiy til normalariga amal qilishi shart.*

Kalit so'zlar: *Adabiy til, badiiy til, olinma so'zlar, yangi so'zlar, adabiy qatlam, noadabiy qatlam.*

Til – asosan fikr almashish, muloqot vositasidir. Til millatning bo'lagidir. Til bor ekan, jamiyat ham bor, jamiyat bor ekan, til ham bor. Ikkalasi bir birini taqozo etib keladi. Til insonlarni bir buyuk millatga birlashtira oladi. Til eng qadimgi muloqot vositasi bo'lib, qachon va qayerda, qay holda paydo bo'lganligi olimlarni o'yga toldirmoqda va haligacha ilmiy izlanishdan to'xtagani yo'q. Yer yuzida 7 mingga yaqin til bo'lib, ulardan 96 tasiga davlat tili maqomi berilgani haqida ma'lumotlar yetib kelgan. Eng quvonarli tomoni o'shalarning ichida o'zbek tili ham bor.

Til millat ko'zgidir. O'zbek tili qadimgi til sifatida ham e'tirof etiladi. U xalqimizning urf-odatlarini, milliy qadryatlari bilan ham uyg'unlashib ketadi. Mustaqillikdan oldingi davrda ko'plab tanqidlarga uchragan, bu o'zbek tili A.Avloniy, Cho'lpon, Fitrat va shu kabi ko'plab allomalarning o'z tiliga bo'lgan mehr-muhabbat va tinimsiz kurashishlari sababli mana shunday yuksak mavqega yetib keldi.

Til haqida juda ko'plab olimlar o'zlarining ilmiy-nazariy qarashlarini keltirib o'tishgan. Jumladan, M.Irisqulovning "Tilshunoslik nazariyasi" nomli kitobida tilning

ilmiy tomoni tadqiqq etilib, u haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: *Tilni o'rganuvchi fan esa "tilshunoslik" deyiladi. Tilshunosik- tilning paydo bo'lishi va tafakkuri, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rne, ichki tuzilishi, tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fandır.* Tillar ham guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Ulardan biri adabiy tildir. Ko'plab olimlarimizning izlanishlariga ko'ra, shuningdek, Ra'no Sayfullayeva va boshqa yozuvchilarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli kitoblarida shunday ta'rif bergan. "Adabiy til (aniqrog'i, adabiy nutq) – umumxalq tilining ishlov berilgan, sayqallangan va ma'lum bir me'yorga solingan shakli. Shuning uchun tilning bunday ko'rinish shakliga tilshunos Mustaqim Mirzayev: "Adabiy til- umumxalq tilidan yasalgan guldast", - deb baho bergan edi. Adabiy til (nutq). me'yorlashgan U xalq shevalaridan ustun turadi va uning me'yorlariga qat'iy rioya qilish shu tilda (xalqqa) so'zlovchilar, turli sheva lahja vakillari orasida rasmiy muloqot uchun shart. Yozma va og'zaki nutqda adabiy me'yorga rioya qilish so'zlovchi (yozuvchi) madaniy saviyasini belgilaydi.

Haqiqatdan ham til jamiyatni bezab turuvchi guldır. Agar gul so'nsa muattar hidini ham yo'qotadi. Til ham xuddi shunday muloqotdan chiqsa, o'z ko'rkini yo'qotadi.

„Til bilgan - el biladi". Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish sohasi yuksak darajaga chiqmoqda. Maktabdan boshlab katta ish idoralarigacha ishga qabul qilishdan oldin chet tilini bilish sertifikatları so'ralmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida chet tiliga bo'lgan qizig'ishlarini orttirmoqda. Hozirgi kunda qad kutarilayotgan binolar, firma, korxonalar va idoralar nomi chet tili nomlari bilan atalmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida tilga bo'lgan munosabatini o'zgartirmoqda. Hozirgi yoshlar o'rtasida urfga aylanayotgan va kundalik hayotda iste'molga kirib kelgan „ok, uspet, prezentatsiya, tyutor, starosta va shu kabi so'zlar qisman talaba yoshlar o'rtasida urf bo'lgan bu so'zlarning asl ma'nosini bilmasakda lekin hamon iste'molda va bu kabi so'zlar haligacha jamiyat orasiga kirib kelmoqda. Biz nima uchun „OK " deymiz? „OK" so'zi jamiyatimizda vaholanki, butun dunyoda urfga aylangan so'z hisoblanadi. Bostondagi yosh intellektuallar "knuf ced" uchun "KC", "oll wright" uchun "OW" va "Know Yuse" uchun "KY" kabi bir nechta qisqartmalar o'ylab topishgan. Lekin 1840-yilda „Old Kinderhook" ya'ni "OK" ni Martin Van Burdenning prezident sifatida qayta saylanish kampaniyasida nutq dasturiga tushib qolganligi tufayli bu qisqartma saqlanib qoldi. Hozirgi kunda bu so'z o'zbek tiliga "ha, yaxshi, xo'p" kabi tarjima qilinadi.

-Nega kech qolding?

-Uspet qilolmadim.

Lekin yoshlarimiz bu so'zni ko'proq vaqtga qiyoslab aytadi. „Uspet" so'zi asli rus tilidan olingan bo'lib o'zbek tiliga „ulgurmoq" deb tarjima qilinadi. „Ulgurmoq" so'zi, O'zbek tilining izohli lug'ati"da (biron ishni bajarishga imkoniyat, vaqt

topmoq, muvaffaq bo'lmoq, bajar olmoq, erishmoq, berilgan bilimlarni tushunib , egallab olmoq, o'zlashtirmoq) degan ma'nolarni beradi. Talaba yoshlarni orasida muntazam muloqatda bo'lgan, „Tyutor“ so'zi aslida qanday ma'noni anglatadi? Aslida bu so'z ingliz tilidan olingan va hozirga kunda talabalar bilan jamoada, qolaversa shaxsiy hayotida ham ota onadek birga ishlaydigan rahbar, ustozdir . Talabaga eng yaqin ko'makchidir. Maktabda “sinf rahbari“ deb ataladigan bu so'z, oliy o'quv dargohlarida “Tyutor” deyiladi. Yana shunday so'zlar borki, talabalar o'rtasida muloqatga kirib ulgurgan “starosta” so'zi. Bu so'z rus tilidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tiliga “oqsoqol, boshliq, sinf boshlig'i, kurs boshlig'i“ so'zlarini beradi. Bu so'zlar guruh, jamoa, urug' va qabila yetakchilariga nisbatan aytiladi. Umuman olganda, bu so'z boshchilik, rahbarlik qiluvchi, oila boshlig'i, qabila boshlig'i deya nomlanadi. Ijtimoiy muloqatga kirib kelayotgan bu turdagi noadabiy so'zlar keyinchalik o'zbek tiliga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bu borada o'zbek tiliga ko'plab yangi- yangi islohtlar kiritilmoqda. 1989-yil 21-oktyabr „O'zbek tiliga davlat tili“ maqomi berildi. Barcha davlat idorlaridagi ish qog'ozlar o'zbek tilida yuritiladigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining X 10.2019-yildagi PF5850-son farmoniga ko'ra (O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari tog'risida “Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy, ma'rifiy va badiiy tafakkuri , intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.”) O'zbek tili ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda faol qo'llanilib kelinmoqda.

Tilni o'zlashtirish, uni o'rganish yaxshi, lekin undan o'rinli foydalanish darkor. Til millat ko'rkidir. Til bor ekan, millat yashayveradi. Har bit millatning o'zi sevgan, mehr qo'ygan tili bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zga tillarni o'rganish oqibatida o'zbek tilidagi so'zlarning muloqotdan chiqishi bu o'zbek tilining mavqeyini tushirishga olib keladi. O'zbek tilini xalqning hayotida va xalqaro jarayondagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, undan o'rinli foydalanish zarur. Voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni ona tilga sadoqat ruhida tarbiyalash, ajdodlardan qolgan bu merosni keyigi avlodlarga yetqazish – oliy burchdir.

ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 Tom 1995, vikipediya,
2. M. Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” 5-bet Toshkent "O'qituvchi" 1992.
3. O'zbek xalq maqoli,
4. ¹<https://ed.ted.com/>